

## "TARAQQIY" GAZETASINING MILLIY MATBUOT TIZIMIDAGI RO'LI VA AHAMIYATI

*Usmonaliyeva Madina Komiljon qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Gumanitar fanlar"  
fakulteti 1-kurs magistri*

*Ozodova O'g'iloy Davron qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Gumanitar fanlar"  
fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy matbuotning vujudga kelishi, uning davr ijtimoiy va siyosiy hayotidagi o'rni "Taraqqiy" gazetasi misolida ilmiy manbalar orqali yoritib berildi. Shuningdek, maqolda gazetaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi ochiq qarshiligi misollar orqali asoslab berildi. Uning tanazzuli va tanazzuliga sabab bo'lgan omillar ham maqolada o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** "Taraqqiy" gazetasi, Ismoil Obidiy, matbuot, maktab, Abdulla Avloniy, mustamlakachilik, Cho'lpon.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГАЗЕТЫ «ТАРАККИЙ» В СИСТЕМЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРЕССЫ

**Аннотация:** В данной статье на основе научных источников освещено возникновение национальной прессы, ее роль в общественно-политической жизни того времени на примере газеты «Таракки». Также открытое противодействие газеты колониальной политике было обосновано примерами. В статью также включены факторы, вызвавшие его упадок и упадок.

**Ключевые слова:** газета «Таракки», Исмаил Абиди, пресса, школа, Абдулла Авлони, колониализм, Чолпан.

### THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE NEWSPAPER "TARAQQIY" IN THE NATIONAL PRESS SYSTEM

**Annotation:** In this article, the emergence of the national press, its role in the social and political life of the time, using the example of the "Taraqqi" newspaper, was covered by scientific sources. Also, the newspaper's open opposition to the colonial policy was justified through examples. The factors that caused its decline and decline are also included in the article.

**Key words:** "Taraqqi" newspaper, Ismail Abidi, press, school, Abdulla Avloni, colonialism, Cholpon.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati vujudga keldi va qisqa muddat ichida talay islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, yangi usul maktablarini joriy qildi, bu maktablarda diniy ilm bilan yonma-yon ravishda dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlandi va eng muhimi milliy teatr va milliy matbuotga asos solindi. Jadidlarning bunday islohotlarining tag zamirida xalqning ma'naviy olamini yuksaltirish, siyosiy ongini shakllantirish, vatanparvarlik, elparvarlik hislarini uyg'otish kabi ezgu maqsadlar yotardi. Bu davrda Turkiston jamiyati dunyodan bir qadar uzilgan, o'z qobig'iga biroz o'ralib qolganligi ham tan olishimiz kerak bo'lgan og'ir haqiqatdir. Aynan bu jarayonga chek qo'yish, Turkiston ahlini dunyo va hududiy yangiliklardan boxabar etish uchun jadidlar gazetalarni bosib chiqara boshladi. Dastlabki shunday gazetalardan biri "Taraqqiy" gazetasidir.

Turkistondagi ilk milliy gazeta 1906-yil 14-iyun (yangi hisobda 27-iyun) kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan "Taraqqiy" gazetasidir hisoblanadi.[1] Bu gazeta o'zining nomiga momand millatni xalqni taraqqiy etishi uchun o'z hissasini qo'sha olgan. Xususan, gazetaning birinchi nashrida gazetaning nomi quyidagicha izohlanadi: "Gazetamiz "Taraqqiy" nomida bo'lib borab bora jismi xam ismiga muvofiq o'lub millatimizni "keyin" bormog'iga aslo rozi emasdurimiz. Baqadri imkon millati islomni oliy darajada o'lmog'iga va millati islomdagi tijorat, kasb va korning ortmog'iga yo'l izlab ijtihod qilur"[2]

Gazeta, asosan, o'z sahifalarida jadidchilik qarashlariga asoslangan ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surdi, Turkiston xalqining jaholatdan qutilishi, taraqqiy topishi haqida qizg'in fikrlar yuritib, demokratik tartiblar uchun kurashgan. Gazeta haqida jadid ma'rifatparvarlari iliq fikrda bo'lishgan. Masalan, Abdulla Avloniy "Taraqqiy" haqida: "Bu gazeta – elning sevib o'qiy turgan bir gazetasi bo'la oldi. Bu gazeta o'sha zamon musulmon gazetalari ichida eng so'li bo'lib, hukumatga va uning ma'muriyatiga qarshi o't ochdi. Bu gazeta erli yosh yozuvchilarga sahifasidan keng o'rin berdi[3]". Avloniy fikrlariga asoslanib, gazeta o'zining faoliyati bilan hukumatga qarshi jiddiy kurash olib borganini bilan birgalikda, yosh yozuvchilarni ham doimiy qo'llab-quvvatlaganini bilib olishimiz mumkin. Cho'lponning ma'lumotlarida esa gazetaning muharriri va uning qancha muddat faoliyat olib borganligi keltiriladi. "Taraqqiy – taraqqiyparvar bir gazeta bo'lib, muharriri ichki Rusiya totorlaridan Ismoil Obidiy yo'ldosh edi. Oktyabr inqilobidan so'ngra bu kishi so'l susiyolist revolyusioner firqasi vakili o'laroq doxiliya ko'misori mansabinda bo'lindi. Ikki oy qadar davom etgandan so'ngra xukumat tarafidan bekitildi[4]", - deydi u.

Gazetaning bosh muharriri tatar millatiga mansub Ismoil Obidiy edi. Ma'lumotlarga ko'ra u Sharqiy Turkistonning G'ulja shahrida dunyoga kelgan va ma'lum bir sabab bilan oilasi bilan Qozon shahriga ko'chib kelgan. U yerda bilim olgach, inqilobiy kayfiyati borligi uchun ko'p yillar quvg'inda hayot kechirgan. 1905-yilda Toshkentga keladi va mahalliy ma'rifatparvarlar bilan birgalikda ilk milliy

gazetaga ham asos soladi. To'g'ri, undan avvalroq ham O'rta Osiyoda "Turkiston viloyati gazetasi"(1870) nomli gazeta bor edi, ammo u mustamlaka hukumat manfaatiga xizmat qilar edi."Taraqqiy" esa milliy uyg'onishga va ma'rifatga jalb qilganligi bilan e'tiroflidir.

Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muxarriri bo'lgan Ismoil Obidiyga Taraqqiy ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritadur.[5] Muallifning tashabbusi bilan faoliyatini boshlagan gazeta shu qadar xalq ommasiga kirib borgan ediki, xalq orasida uning Ismoil ismi ham yozgan chiqib ketgan edi.

Gazeta o'z maqolalarida mustabidlik siyosatini ochiqdan ochiq fosh qilib tashlaganligi bilan ham diqqatga sazovor. Xususan, maqolalarining birida: "Musulmoncha bir kichkina risola bosdurmoqchi bo'lsak, sahifalar ortiqli, turtiqli buzulib, qo'limizga qaytur edi. Maktablar ochadigan bo'lsak, turli bahonalar bilan yopishar, madrasalarimizni "pechatlashub", 2–3 tiyin masjid, madrasa vaqflaridan ham ayrilur edik[6]", - deb yozilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Boshqa bir maqolada esa: "O'zlari tilagancha, yozadi gazeta, qo'y orasida bo'ri yurgandek bizga dinimiz va Qur'oni sharifimizni haqorat etub, masjid, madrasalarimizning 3–4 tiyin vaqflaridan ayrilg'onlarimiz etmasa, butun dunyog'a haqorat qildurub missiyunerskiy gazetalarda bosdurub nashr qilurlar edi", - degan o'tkir fikrlar bildiriladi.

1906-yilning 8-avgust sonida chop etilgan "Ma'murlar" sarlavhali maqolada: "Jami ahloqi fosidani bular nashr etdilar. Dunyoni fasodiga bular sabab va bois bo'ldilar... Bir millatni ikkinchi millatga kaltak qilub, qon to'kmak hunarini asar etmak bularning ixtiro qilg'on hunarlaridur. Zulm qilmoq, ilmg'a sad tortmoq, muxtalif millatlar orasiga adovat solmoq kabi asbobi madaniyat bo'lg'on hunarlarga ham mahorat kasb etdilar[6.10]", - deb yozib, rus amaldorlarining xalq uchun xizmat qilish o'rniga, ularni ezish, mol-mulkini o'zlashtirishini aytib, ularning haqiqiy qiyofasini ochib tashlaydi.

"Taraqqiy" ruslarga qarshi har qanday harakatni qo'llab quvvatlagan. "Alhamdulillah sam alhamdulillah aholi viloyatimizning bu kunlarda uyqularindin uyg'onub emoqg'a g'izo, icharg'a suv izlagandek har tarafdin oxista-oxista kelgan ovozlarga quloq solub turuvlari: oralaridan bir odamning "zamonamiz foyda va istifoda zamonidir; millat manfaatina xizmat etmak zamon ba zamon, tortkan mehnat, ko'rgan zahmatlaridan qutilaturg'on zamon bu zamon. Din va dunyomiz uchun g'ayrat qilub ibrat oladurg'on zamon –bu zamon. Har kim o'z xissasin olub turg'on muddatda og'iz ochub qoladurg'on zamon emas", deb bergan ovozlariimizni eshitgudek ko'rinurlar[7]", - deb yozganidan gazeta butun millatning jaholatdan qutilishi, taraqqiy qilishi, erki va istiqloli uchun kurashganligini bilib olisimiz mumkin. Bu so'zlar gazetaning asl maqsadini ifodalagan desak hech yanglishmagan bo'lamiz.

Gazetada “Xorijiy xabarlar”, “Mamlakat xabarlar”, “Rusiya xabarlar”, “Toshkent axbori” singari ruknlar ostida juda ko'plab xabarlar berib borilgan.[8] Xorij mamlakatlaridagi o'sha davrda kechayotgan siyosiy yangiliklar orqali xalqning siyosiy ongini oshirish, dunyoga yuzlashish kabi maqsadlar amalga oshirilgan Bundan tashqari, gazetada turli xil e'lonlar, reklamalar berib berilganligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Xususan, yangi usul maktablari to'g'risida ham ko'plab maqola va e'lonlar muntazam ravishda berib borilgan.

"Taraqqiy" gazetasi sahifalarida chor hukumatiga va uning millatchilikdan iborat siyosatini qoralaydigan, ruhoniylarning ochko'zligi, nodonligi, boylarning fuqaro va ishchilarni talashi va ezishini fosh qiladigan maqolalar bosilib chiqdi. Chunonchi gazetaning 1906-yil iyulida chiqqan 5-sonida fuqaro va ishchilarning og'ir ahvolini tasvirlaydigan maqola berilgan. Gazeta sahifasida bunday ruhdagi maqolalarning bosilishi chor amaldorlarini ham, ruhoniylar va boylarni ham tashvishga solmay qo'ymas edi, albatta. Shu tufayli “Taraqqiy” gazetasi 20-son chiqishi bilan hukumat tomonidan musodara etilib, redaktori qamoqqa olindi.[9]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, “Taraqqiy” o'z sahifalarida xalqni uyg'onishga, yuz berayotgan voqealarga befarq bo'lmaslikka, yurtning ozodligi uchun kurashishga, jaholat botqog'idan qutulishga chorlagan. Ammo bu rus ma'murlariga yoqmas edi. Shu sababdan ham gazeta o'zining 2oylik faoliyatidan so'ng chiqishi taqiqlab qo'yildi. Davr muhiti gazetaning umri qisqa bo'lishiga sabab bo'ldi. Ammo shu qisqa davr mobaynida gazeta o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga harakat qildi. Eng asosiysi, milliy ruhdagi gazeta sifatida o'z nomini tarixda qoldirdi. Bugungi kunda 27-iyun sanasi, ya'ni gazetaning ilk soni chiqqan kun yurtimizda "Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni" sifatida keng nishonlanib kelayotgani ham, "Taraqqiy" gazetasining milliy matbuot tariximizdagi o'rnining beqiyos ekanligini ko'rsatib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1] <https://oyina.uz/uz/article/907>
- [2] "Taraqqiy", 1906 yil, 1-son, 3-bet.
- [3] Abdulla Avloniy. Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi // Turkiston. 1989. 18 iyul.
- [4] Abduazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi ( Genezis va evolyutsiya ). Birinchi jild, – T.: Sharq, 2008. – B. 96.
- [5] Turkiston matbuoti tarixi ( 1870- 1917 ) “Akademiya” Toshkent 2000. 70-bet.
- [6] Pidayev T. Matbuot millat chirog'i. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999. – B. 10
- [7] Pidayev T., Do'stqorayev B. “Taraqqiy” gazetasi // Xalq so'zi. 1993. 11 iyun.
- [8] Turkiston matbuoti tarixi ( 1870- 1917 ) “Akademiya” Toshkent 2000. 9-bet.
- [9] T. Ernazarov. Turkistonda vaqtli matbuot ( 1870 — 1924 yillar ) Toshkent. O'zbekiston SSR davlat nashriyoti. 1959. 83-bet.